

SUD PSIXOLOGIK EKSPERTIZASINING O'ZIGA XOSLIGI VA UNING XUSUSIYATLARI

Ibragimov Sardor Rustam o'g'li

X.Sulaymonova nomidagi Respublika Sud ekspertiza markazi

sardorrich97@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sud psixologik ekspertizasining qisqacha tarixi, o'ziga xosligi va xususiyatlari haqida so'z boradi.

***Kalit so'zlar:** Sud ekspertiza, sud psixologik ekspertiza, sud psixologik ekspertizasining vazifasi, sud psixologik ekspertizasi tayinlanadigan holatlar.*

CHARACTERISTICS OF FORENSIC PSYCHOLOGICAL EXPERTISE AND ITS CHARACTERISTICS

ABSTRACT

This article talks about the brief history, uniqueness and features of forensic psychological expertise.

***Key words:** Forensic examination, forensic psychological examination, the task of forensic psychological examination, circumstances in which a forensic psychological examination is appointed.*

KIRISH

Tarixan ming yillik ildizlarga ega bo'lgan psixologiya fanida ekspertizalar turli davrlarda turli xil ko'rinishlarda o'tkazilgan. Bugungi ko'rinishiga XIX asrning ikkinchi yarmidan bir qator mamlakatlarning jinoyat protsessual kodekslariga ayblanuvchining o'z xatti-harakatlariga javob bera olish yoki javob bera olmasligini

aniqlash to'g'risidagi norma kiritilganidan keyin kelgan. Misol uchun Rossiyada 1864-yilda jinoyat ishlari bo'yicha sudlov nizomiga psixiatrik ekspertiza o'tkazish zarurligi to'g'risidagi kodeks qo'shilgan va ushbu psixiatrik ekspertiza tarkibida psixologik ekspertiza o'tkazish ham ko'zda tutilgan.[2] Shu vaqtdan e'tiboran Rossiyada psixologik ekspertiza o'tkazila boshlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Sud psixologik ekspertizasi jinoyat protsessual kodekslariga kiritilganidan hozirgi kungacha bo'lgan davrda ko'plab rivojlanish va turg'unlik davrlarini boshdan kechirdi, metodologiyasini, metodlarini rivojlantirdi, o'z vakolatlarining chegarasini belgiladi va eng asosiysi sud jarayonlarida boshqa ekspertiza turlari singari ekspert xulosasining ishonchli ashyoviy dalil sifatida qabul qilinish darajasiga erishdi.

O'zbekiston Respublikasida sud psixologik ekspertizasi huquqiy jihatdan JK, JPK, FPK, MSIIYutK va O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solingan. Ushbu kodekslarda tegishliligi bo'yicha sud ekspertizasining tayinlanish asoslari, sud ekspertiga qo'yiladigan malaka talablari, ekspertning huquqlari, ekspertning majburiyatlari va javobgarligi belgilangan.

Sud psixologik ekspertizasi o'tkazishni psixologiya sohasiga tegishli oliy ma'lumotga ega bo'lishidan tashqari, sud psixologiyasi bo'yicha maxsus bilimlarga va amaliy tajribaga ega bo'lgan psixolog-ekspertga topshirish kerak. Shu o'rinda sud psixologik ekspertizasini o'tkazuvchi mutaxassis qanday bo'lishi kerak degan savolga F.S.Safuanovning "faqat oliy psixologik ma'lumotga ega bo'lgan, o'z mutaxassisligi bo'yicha faoliyat olib borayotgan va sud ekspertizasini o'tkazish uchun yetarli kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish bilan birgalikda psixologik ekspertizalarini amalga oshirish uchun psixologiyaning nazariyasi va metodologiyasini chuqur biladigan hamda amaliy malaka va ko'nikmalariga ega bo'lgan mutaxassis" deya bildirgan fikrlariga to'liq qo'shilmiz. [8]

Shuningdek, H.A.Ruhiyevaning ta'kidlashicha "Sud psixologik ekspertizasi sud eksperti (maxsus psixologik bilimlarga va maxsus tayyorgarlikdan o'tgan) tomonidan,

alohida holatlarda oliy o'quv yurtlarining psixologiya kafedrasida faoliyat ko'rsatayotgan hodimlar yoki ilmiy-tadqiqot institutlarining psixolog ilmiy hodimlari tomonidan o'tkazilishi mumkin" degan fikrni bildirib o'tgan. Shunga ko'ra, bu jarayon psixologik bilimlar talab qilganligi bois – psixologiya ilm-fani sohasidagi bilimlariga va maxsus tayyorgarlikka yoki lozim darajadagi ish tajribasiga ega mutaxassis tomonidan o'tkazilishi ayni maqsadga muvofiq.[3]

Sud-psixologik ekspertizasining asosiy vazifalaridan biri – guvoh, ayblanuvchi, hamda jabrlanuvchilarning o'ziga xos psixik faoliyati bo'yicha haqiqatni aniqlash imkoniyatini berish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan yangi dalillarni maxsus psixologik bilimlar asosida olishdan iboratdir.

Sud-psixologik ekspertizasining vazifasi tushunchasidan kelib chiqqan holda, uning umumiy predmeti tariqasida maxsus psixologik tekshirishlar yo'li bilan sinaluvchilarning barcha psixologik xususiyatlarini aniqlash jarayoni deyishimiz mumkin.

Ekspert psixologik tekshiruvlarning ob'ekti — inson psixikasidir. Psixika deb psixik (ruhiy) hodisalarning butun bir majmuyi nazarda tutiladi.[9] Ya'ni psixika o'z ichiga psixik hodisalarning psixik jarayonlarini, psixik mahsullarini va psixik holatlarini oladi. Psixologik ekspertizada odatda yuqorida sanab o'tilgan hodisalarning barchasi o'rganiladi.

MUHOKAMA

Sud-psixologik ekspertisasi muammolariga murojaat qilgan ko'pchilik mualliflarning fikricha, sud-psixologik ekspertisasi faqat zarur hollardagina psixik jihatdan sog'lom kishilarga nisbatangina o'tkazilishi mumkin va shart, ya'ni sud-psixologik ekspertizasiga yuborilayotgan ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlarning psixik sog'ligi (salomatligi) huquqni muhofaza qilish organining vakillarida savol tug'dirmagan yoki sud-psixiatrik ekspertizasining xulosasi bilan tasdiqlangan holatlarda o'tkaziladi. [4] [7]

Sud-psixologik ekspertizasining predmeti ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh va jabrlanuvchilarning ko'rsatmalarini haqqoniyligini tasdiqlash emas, balki so'roq qilinayotgan shaxsning bergan ko'rsatmalarini isbotlanishi zarur bo'lgan faktlarni, dalil isbotlarni idrok qilish, xotirasida saqlash hamda bayon etish qobiliyati, boshdan kechirayotgan psixologik jarayonlarga aynan muvofiqligini aniqlashdan iboratdir. Albatta bundan ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh va jabrlanuvchilar yolg'on yoki rost gapirayotganligini aniqlash bo'yicha maxsus poligraf apparati yordamida o'tkaziladigan sud-psixofiziologik ekspertisasi mustasno.

NATIJARLAR

Sud psixologik ekspertizasiga psixologiya fani jixatidan yondashadigan bo'lsak, psixologik ekspertiza psixologiya fanining mazmuni, uning amaliy sohalari (yuridik, tibbiyot, muhandislik psixologiyasi va boshqalar) bilan belgilanadi. Shuning uchun uning vakolatiga psixikaning turli ko'rinishlari, ruhiy jarayonlar, hissiy holatlar, ruhiy jixatdan sog'lom odamlarning (guvohlar, jabrlanuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilar va boshqalar) individual-psixologik xususiyatlarini, sud muhokamasiga aylangan nizoli vaziyatlarni ko'rishda, o'ta og'ir vaziyatlarda qaror qabul qilishda o'zini tutishi va ularga nisbatan psixologik ta'sir ko'rsatuvchi omillar va shunga o'xshash yana ko'plab motivlar, xususiyatlar, omillar va darajalarni o'rganish kiradi.

Biroq, sud-psixologik ekspertisasi jinoyatning yoki mazkur harakatning huquqiy, tibbiy, pedagogik, falsafiy, estetik tomonlarini yoritish va baholash vakolatiga ega emasligini esda saqlash lozim.

Shu o'rinda Sud-psixologik ekspertizasini tayinlashga taalluqli bo'lgan holatlarni bayon etadigan bo'lsak, sudda yoki sudgacha quyidagi holatlarda psixologik ekspertiza tavsiya etilishi nazarda tutiladi:

1. Shaxsning yosh davriga ko'ra psixik rivojlanishdan ortda qolishini, ya'ni psixik va aqliy rivojlanish darajasi yoshiga nisbatan mos adekvat yoki mos adekvat emasligini aniqlash zaruriyati tug'ilgan hollarda;

2. Jinoyatning sodir etilishiga sabab bo'luvchi, jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq me'yorlariga zid xulq namoyon bo'lgan yoki kuchli psixik hayajonlanish

holatining yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi ayrim omillar ko'zga tashlanish holatlarida;

3. O'z xatti-harakatining ahamiyati va axloqiy mohiyatini tushunib yetmaslik holatining mavjudligi haqida shubha paydo bo'lgan paytda;

4. Ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchining berayotgan ko'rsatmasi uning xarakter xususiyatiga to'g'ri kelmayotganligiga shubha paydo bo'lgan holatlarda;

5. Ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarning shaxs va individual-psixologik xususiyatlarini, yosh va aqliy rivojlanish darajasiga ko'ra sodir etilgan jinoiy harakatning mohiyatini, oqibatini tushunish va aniq, baholay olish hamda to'g'ri ko'rsatma bera olish layoqatiga ega ekanligini oydinlashtirishda;

6. Jabrlanuvchining jinsiy munosabatlarga bog'liq jinoyat mazmun va mohiyatini to'g'ri idrok qila olish qobiliyatini aniqlashda;

7. Voyaga yetmagan yoshdagi ayblanuvchining psixik xastalikka bog'liq bo'lmagan holdagi aqliy qoloqlik (psixik rivojlanishdan ortda qolish) xususiyatiga ko'ra o'z xatti-harakatlariga javob bera olish qobiliyatini aniqlash zaruriyatida;

8. Jinoyat sodir etilish jarayonida ayblanuvchi ongiga ta'sir etuvchi fiziologik affekt yoki boshqa hissiy holatlarning mavjudligini aniqlash maqsadida;

9. Kishining o'z joniga qasd qilish (suitsid) jarayonidagi psixik holatini tadqiq etish maqsadida;

10. Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda bolaning emotsional bog'liqlik darajasini aniqlashda psixologik ekspertiza o'tkazish tavsiya etiladi. [4] [5] [6] [7]

Shuningdek, sud-psixologik ekspertiza jinoyatning sodir etilish jarayonida shaxsning psixologik xususiyatlarini, jinoiy xatti-harakatning psixologik mazmunini, sodir etilgan jinoiy harakatga nisbatan ayblanuvchi yoki jabrlanuvchining xatti-harakat, maqsad va motivini aniqlashda ham qo'llanilishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan ekspertiza tayinlash tavsiya qilinadigan holatlarda psixolog ekspert tomonidan validligi va ishonchliligi yuqori bo'lgan metod va metodikalar o'tkazish yordamida xulosa chiqariladi. Shuningdek hozirgi kunda sud ekspertiza sohasida yordamchi metod sifatida vizual psixodiagnostika (profayling) tarmog'idan keng foydalanilmoqda. Bu insonni kuzatish orqali idrok etish asosida uning psixologik holatini aniqlashdan iborat diagnostik usuldir.

Sud psixologik ekspertizasining maqsadi mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishda, jinoyatga jazoning muqarrarligini ta'minlashda va haqiqatni aniqlashda odil sudlovga ko'maklashishdan iborat.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki sud-psixologik ekspertizasi o'zining tekshirish predmeti va ob'ektiga ega bo'lgan, o'zida ekspert tekshiruvlarining mustaqil turini aks ettiradigan va shuning uchun ham u boshqa hech qanday ekspertiza bilan almashtirilishi mumkin bo'lmagan ekspertiza turi hisoblanadi.

Shuningdek bugungi kunda mamlakatimizda sud psixologik ekspertizasining nazariy va amaliy asoslari, adabiyot, darslik, o'quv va metodik qo'llanmalari sifatida chet el psixologlarining ma'lumotlaridan foydalanayotganimizni ko'rishimiz mumkinligi, lekin, shu bilan bir qatorda O'zbekiston psixologlaridan G'oziyev E.G'., Ruhiyeva H.A., Umarov B.M., Axmedova M.X., Tursunov L.S. kabi bir qator avtorlarni ham uchratishimiz mumkinligi, sud psixologiyasi sohasida qator ilmiy ishlar olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratilganligi va bu borada davomli ravishda sohaga e'tibor qaratib kelinayotganligining dalilidir. So'zimizning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2021-yil 5-iyulda imzolangan O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6256-sonli Farmoni va ushu farmonning 1-ilovasidagi O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021 – 2025-yillarga mo'ljallangan Konsepsiyalarini keltirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Sud ekspertizasi to‘g‘risidagi qonun. T., 2010 y.
2. Ruhiyeva H.A., G‘oziev E.G‘., Muxtorov A. Sud psixologik ekspertizasi. T. 2001.
3. Ruhiyeva H.A. Sud psixologik ekspertizasi. T. 2005.
4. Ruhiyeva H.A., Axmedova M.X. Sud-psixologik ekspertizasi. O‘quv qo‘llanma. T., 2009 y.
5. Mahmudova H.T. Sud-psixologik ekspertiza asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T., 2019 y.
6. Yengalichev V.F., Mahmudova H.T. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud-psixologik ekspertiza. Monografiya. T., 2020 y.
7. Umarov B., Qodirov U. Huquqshunoslik faoliyati psixologiyasi. Uslubiy qo‘llanma. T., 2005 y.
8. Сафуанов Ф.С. Судебно-психологическая экспертиза в уголовном процессе. М., 1998 г.
9. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. Darslik. T., 2023 y.